Yagona Vatan, yagona xalq bölib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

KONÇILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan çiqa boşlagan

№20 (830), 2026-yil, 29-oktyabr

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni

Ma’lumki, buyuk şoir, mutafakkir va davlat arbobi, hazrat Alisher Navoiy turkiy tilni şe’riyat osmoniga olib chiqdi. U özi yaşab ijod qilgan XV asrda turkiy tilning beqiyos jozibasi va imkoniyatlarini, bu tilda har qanday asarlar yaratiş mumkinligini amalda isbotladi.

EHTIROM RAMZI



Uluğ şoirning beşta dostondan iborat “Xamsa” asari buning yorqin isbotidir. Darvoqe, söz mulkining sultoni Alişer Navoiy jahon adabiyotining buyuk namoyandalari safidan örin egallaganligi nafaqat özbek, balki turkiyzabon xalqlar qalbida çeksiz faxr-iftixor tuyğularini uyğotmoqda. Navoiy şahri jamoatçiligining özbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 37-yilligi hamda Özbek tili bayrami şodiyonalari şoir va davlat arbobining viloyat markazidagi istirohat boğida örnatilgan haykali poyiga gulçambarlar qöyiş bilan boşlanganligida ham çuqur ma’nomazmun, Alişer Navoiyga çeksiz hurmat va ehtirom mujassamdir.

Viloyat hokimligi, korxona va taşkilotlar vakillari, Navoiy davlat va Navoiy konçilik va texnologiyalar universitetlari rahbar-u talabalari, adabiyot ixlosmandlari erta tongdanoq buyuk mutafakkirga haykal örnatilgan maydonda töplandilar.

Ona tilimizni uluğlagan şoir haykali poyiga gulçambarlar qöyildi. Özbek tili bayrami va ona tilimizga davlat tili maqomi berilganligining 37-yilligiga bağişlangan tadbirda viloyat hokimning örinbosari J.Xodjayev hamda Navoiy davlat universiteti professori T.Xöjayevlar barçani qutluğ sana munosabati bilan tabriklab, özbek tilini yanada rivojlantiriş, nufuzini oşiriş, sofligini saqlaş, yoş avlodni ona tilimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaş xususida fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Özbek tili bayramiga bağişlangan tadbir viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazida maqom konsert dasturi bilan davom etdi.

N.XAYRIDDINOV.

TIL BAYRAMI KENG NIŞONLANDI

Til-millatning ruhi, xalqning ma’naviy boyligi, tarixiy xotirasi va milliy özligini namoyon etuvçi bebaho qadriyatdir.

Özbek tili-buyuk tarix va boy ma’naviyat tili. Uning ildizlari asrlar qa’riga borib taqaladi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nodir asarlar, hikmatli sözlar, maqollar va dostonlar tilimizning naqadar boy va jozibador ekanidan dalolat beradi. Buyuk mutafakkir Alişer Navoiyning ulkan ijodiy merosi ona tilimizga bölgan mehr va iftixorimizni mustahkamlab kelmoqda.

Markaziy kon boşqarmasining bölinmalari işçi–xodimlari örtasida davlat tiliga bölgan hurmatni yuksaltiriş, özbek tilining imlo qoidalariga rioya etiş, savodxonlikni oşiriş va ona tilimizga bölgan e’tibor hamda mas’uliyatni kuçaytiriş maqsadida “Bexato yozamiz!” şiori ostida diktantlar tanlovi bölib ötdi. Yakuniy natijalarga köra ğolib iştirokçilar taşkilotçilar tomonidan esdalik sovğalari bilan taqdirlandilar.

“Qadring baland bölsin, ona tilim!” şiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar taşkil etildi. Tadbirlarda soha mutaxassislari özbek tilining tarixi, rivojlaniş bosqiçlari, hayotimizda tutgan örni, davlat tilining nufuzi va mavqeini mustahkamlaş töğrisida fikr mulohazalarini bildirişdi.

Işçi-xodimlarning özbek tili töğrisidagi bilimlarini oşiriş, tilimizga boşqa tillardan kirib kelgan sözlar va ularning muqobilini örgatiş maqsadida “Men özbek tilida sözlayman” şiori ostida viktorinalar taşkil etildi. Uşbu viktorinalar orqali iştirokçilar xeşteg-kalitsöz, çellenj-çorlov, link-havola, lebyodka-çiğir, negativ-salbiy, kolovorot-qölparma, kommentariy-izoh, avtopilot-avtoboşqaruv, emoji-hisbelgi, frilanser-erkin işçi, şpaler-tokustun, başmaq-boşmoq, rubilnik-uzgiç, datçik-sezgiç kabi boşqa tildan özlaşgan yetmişga yaqin atamalarning ma’nolarini bilib olib, özbek tili böyiça bilimlarini boyitişgan bölsa, til haqidagi maqollar orqali sözning qudratini, sehrini, nutq madaniyatini rivojlantirişdagi ahamiyatini yana bir bor anglaşdi.

Özbek tilini-öz ona tilimizni rivojlantiriş, uning ravnaqiga hissa qöşiş, ajdodlarimiz qoldirgan merosni asraş va sof özbek tilida sözlaşib, uni tarğib etiş bugungi kun vatanparvar insonlarining vazifasidir.

Saodat BOBOYOROVA,
Markaziy kon boşqarmasi yoşlari yetakçilari Kengaşi raisi.

■ Transport: bugun va ertaga

Jahon oltin qazib oliş sanoatining yirik va yetakçi korxonalaridan biri hisoblangan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining köpming kişilik jamoasi bugun nafaqat yuqori işlab çiqariş körsatkiçlari, balki iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bölgan transport tizimida amalga oşirilayotgan keng kölamli islohotlar, modernizatsiya jarayonlari va erişilayotgan natijalar bilan ham faxrlanishi mumkin.



RAQAMLAŞTIRIŞ VA TAJRIBA UYĞUNLIGI

Kombinatning transport klasteri qanday qilib kelajak poydevoriga aylanmoqda?

Sönggi beş yil kombinatning içki logistika tizimi tubdan yangilanib, raqamli texnologiyalar va intellektual boşqaruv yeçimlari keng joriy etilgan muhim modernizatsiya bosqiçi sifatida namoyon bölmoqda. Bugun yirik konlardan tortib, qimmatbaho metall işlab çiqariş jarayonlari amalga oşiriladigan zamonaviy gidrometallurgiya zavodlarigaça bölgan barça bölinmalarda transport tizimining imkoniyatlari kengayib, işlab çiqariş jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaşga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlarda 10 ming nafardan ziyod işçi-xodim va 4 mingdan ortiq zamonaviy texnika vositalarining örni beqiyos.

Tizimni modernizatsiya qilişga qaratilgan investitsiya dasturlari doirasida kombinatning avtotransport parki jahonning Caterpillar, Komatsu va Hitaçi kabi yetakçi korxonalarida işlab çiqarilgan, yuk kötariş quvvati 45 tonnadan 260 tonnagaça bölgan 500 dan ortiq oğir yuk kötaruvçi kon avtoağdargiçlari bilan töldirildi.

Zamonaviy kon avtoağdargiçlari haydovçilar uçun qulay va xavfsiz mehnat şaroitlarini yaratişga ham xizmat qilmoqda. Ilgari katta jismoniy kuç va yuqori daradagi e’tiborni talab qilgan jarayonlar bugun konditsioner, şovqindan himoyalangan kabina va elektron nazorat tizimlari bilan jihozlangan texnikalar yordamida amalga oşirilmoqda. Haydovçilar bort kompyuteri orqali yuk oğirligi, şinalar bosimi va boşqa muhim texnik körsatkiçlarni nazorat qiliş imkoniyatiga ega. Bu esa texnikadan foydalaniş samaradorligi va mehnat xavfsizligini oşirişga xizmat qilmoqda.

Konçilik sohasidagi işlab çiqariş körsatkiçlarining ösişi ham transport tizimi imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Xususan, “NKMK” AJ miqyosida 2025-yilning 9 oyi davomida taşilgan toğ jinslari hajmi 232 million kubometrni taşkil etgan bölsa, 2026-yilning şu davrida uşbu körsatkiç 283,5 million kubometrga yetdi. Bunday natijalarga erişişda zamonaviy kon texnikasi, transport logistikasi va işlab çiqariş jarayonlarini samarali taşkil etiş muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davomi 2-betda

■ Xabarlar

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

26-27-oktyabr kunlari Toşkent davlat texnika universiteti, Tarmoqlararo strategik innovatsiyalar va axborotlaştirish markazi, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ hamkorligida “Innovatsiya-2026” XXX xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ötkazildi.



Mazkur xalqaro anjumanda ta’lim va ilm-fan sohasini raqamlaştiriş, konçilik işi va metallurgiya, geologiya, avtomatlaştirilgan boşqaruv tizimlari, raqamlaştiriş, iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt va innovatsion jarayonlar, tabiiy va mineral resurslardan oqilona foydalaniş muammolarini hal qiliş, ekologiya, sanoat xavfsizligi va mehnatni muhofaza qiliş kabi masalalar muhokama etildi.

Uşbu tadbirning yalpi yiğilişida “NKMK” AJ Boşqaruvi raisi – Boş direktori, texnika fanlari doktori, professor Quvondiq Sanaqulov “Avtomatlaştiriş va raqamlaştiriş – “NKMK” AJ negizida innovatsion konçilik va metallurgiya klasterini jadal rivojlantirişning asosiy omillaridir” mavzusida ma’ruza qildi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining avtomatlaştiriş va raqamlaştirişni amaliyotga joriy etişga mas’ul mutaxassislari ham iştirok etdilar.

Zarafşon va Uçquduq şaharlarida Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma’muriyati va kasaba uyuşmasi Kengaşi taşabbusi bilan Markaziy va Şimoliy kon boşqarmalari Avtomobil transporti boşqarmalari va avtokorxonalarining oğir yuk kötaruvchi avtoağdargichlari va boşqa konçilik texnikalari körgazmalari, köngiloçar tadbirlar va konsert dasturlari bölib ötdi.

KASB MAHORATI NAMOYIŞI

Kombinatning Zarafşon şahridagi Avtotransport öquv majmuasida kon-transport texnika vositalari haydovçilari örtasida kasb mahorati tanlovi, yöl harakati xavfsizligi böyiça test, simulyatorda avtoağdargiçni boşqariş hamda VR (virtual reallik) trenajyorlarida agregatlarni ta’mirlaş böyiça amaliy maşq taşkil etildi.

Kon boşqarmalaridagi avtotransport korxonalarida soha xodimlari iştirokida sport bellaşuvlari ötkazildi. Avtomobil transporti sohasining bir guruh faol vakillariga faxriy yorliq va esdalik sovğalar topşirildi.

Öz muxbirimiz.

QIZILQUMDA ONA TILIMIZ TARANNUM ETILDI

Şimoliy kon boşqarmasi tantanalar zalida öziga xos bayram şukuhi hukmron. Bu erda 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni munosabati bilan konçilar, muhandislar va ijodkor xodimlar jam bölishgan. Hammaning diqqat-e’tibori sahnaga qaratilgan. Til — millatning qalbi, xalqning tarixi va ma’naviy dunyosini özida mujassam etgan xazina ekani bugun kon boşqarmasida alohida aks-sado bermoqda.

Dastavval sahnaga Navoiy davlat universiteti dotsenti Elyor Boymanov taklif etildi. Olim özbek tilining kelib çiqiş tarixi, taraqqiyot bosqiçlari va uluğ ajdodimiz Alişer Navoiy merosining badiiy imkoniyatlari haqida sözlar ekan, zaldagilar uni katta qiziqiş va sukut bilan tinglaşdi. Bu çiqiş göyoki keyingi qizğin bellaşuvlar uçun munosib muqaddima böldi.

Şundan söng eng hayajonli daqiqalar - “Özbek tilining badiiy jilosi” şe’rlar tanlovi boşlandi. Kon boşqarmasining turli tarkibiy bölinmalarida, konlar va laboratoriyalarda kun-u tun mehnat qilayotgan işçi-xodimlar birin-ketin sahnaga çiqib, öz ijodiy mahoratlarini namoyiş eta boşlaşdi. Zaldagi olqişlar tinmaydi. Iştirokçilar Vatan, şonli kombinat, ota-ona va oila mavzularidagi şe’rlarni ifodali, yoddan va ta’sirçan öqib berişdi. Satrlarda nafaqat ona tiliga muhabbat, balki şarafli konçilik mehnati va jamoaviy sadoqat madh etildi. Bayram şukuhi faqatgina sahna va şe’riyat bilan çeklanib qolmadi, u keng kölamli bilimlar marafoniga ulanib ketdi. Kon boşqarmasi bölinmalarida xodimlarning til boyligi va savodxonligini sinovdan ötkazuvçi bellaşuvlar qizğin tus oldi.

Korxona xodimlari kundalik iş qurollarini bir zumga çetga surib, “Zakovat” intellektual öyinlari, diktantlar tanlovi hamda “Özbek tilida töğri yozamiz!” nomli test marafonida öz bilimlarini namoyiş etişdi. Stollar atrofida bahs-munozaralar, imlo qoidalari böyiça tortişuvlar ketdi. Bu jarayonlar tilga hurmat faqat bayram kunlari bilan çeklanmay, kundalik muomala va iş yuritiş hujjatlarida ham aks etişi kerakligini yana bir bor körsatdi. Har bir xodimning savodxonlikka intilişi zalda yaqqol sezilib turdi.

Va nihoyat, hakamlar hay’ati yakuniy xulosaga keldi. Tanlov va marafonlar davomida faxrli örinlarni egallagan iştirokçilar sahnaga qayta taklif etildi. Ular boşqarma rahbariyati hamda 1-sonli Birlaşgan kasaba uyuşma qömitasi tomonidan diplom va qimmatbaho esdalik sovğalari bilan taqdirlanişdi.

Bayram munosabati bilan ötkazilgan tadbir şuni körsatdiki, Şimoliy kon boşqarmasi işçi-xodimlari uçun ona tiliga ehtirom — millatga, Vatanga va öz kasbiga bölgan çeksiz hurmat belgisidir. Tadbir yakunlandi, biroq iştirokçilar va tomoşabinlar qalbidagi milliy ğurur va ma’naviy yuksaliş şukuhi hali uzoq vaqt tarqalmasligi aniq.

Agabek ATANIYAZOV,
Şimoliy kon boşqarmasi Axborot va ma’naviyat-ma’rifat guruhi mutaxassisi.

■ Transport: bugun va ertaga



RAQAMLAŞTIRIŞ VA TAJRIBA UYĞUNLIGI

Kombinatning transport klasteri qanday qilib kelajak poydevoriga aylanmoqda?

Oxiri. Boşlanişi 1-betda



MALAKALI KADRLAR — SAMARADORLIK GAROVI

Zamonaviy transport tizimini samarali boşqariş, avvalo, yuqori malakali mutaxassislar va doimiy ravişda takomillaştirib boriladigan kasbiy bilimlarga boğliq. Şu bois kombinatda kadrlar tayyorlaş, qayta tayyorlaş va ularning malakasini oşirişga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kombinatning Navoiy, Zarafşon va Uçquduq şaharlari hamda Zarkent qörğonida joylaşgan beşta yirik öquv markazida yil davomida qariyb 15 ming nafar işçi-xodim qayta tayyorlanib, malakasi oşirilmoqda. Oliy ma’lumotli muhandislar tayyorlaş va ta’lim jarayonini işlab çiqariş bilan integratsiyalaş maqsadida Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universiteti bilan hamkorlik yölga qöyilgan.

Haydovçilar va texnik xodimlarning zamonaviy transport vositalari hamda kon texnikasidan samarali foydalaniş könikmalarini rivojlantiriş maqsadida Zarafşon şahrida zamonaviy avtotransport Öquv majmuasi foydalanişga topşirildi. Unda oğir yuk avtomobillari haydovçilari va temir yöl transporti mutaxassislari maxsus simulyatorlar yordamida bilim va könikmalarini mustahkamlamoqdalar. Öquv majmuasini modernizatsiya qiliş doirasida Caterpillar va Komatsu texnikasi, frontal yuklagiçlar, avtogreyderlar, buldozerlar hamda boşqa yöl-quriliş maşinalarining zamonaviy tizimlari böyiça öquv dasturlari taşkil etilgan. Jumladan, CAT Product Link va AMT tizimlaridan foydalaniş böyiça maşğulotlar ötkazilmoqda.

Zamonaviy texnika vositalarini GPS va masofaviy monitoring tizimlari orqali kuzatiş imkoniyati transport harakatini tezkor nazorat qiliş, texnikadan foydalaniş samaradorligini oşiriş va işlab çiqariş jarayonlarini yanada aniq rejalaştirişga yordam bermoqda.

TA’MIRLAŞ INFRATUZILMASI VA LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRIŞ

“NKMK” AJda kon texnikasi va transport vositalarining texnik sozligini ta’minlaş, ularning işlaş muddatini uzaytiriş hamda ta’mirlaş xarajatlarini maqbullaştiriş maqsadida ta’mirlaş infratuzilmasini rivojlantirişga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Içki yonuv dvigatellarini ta’mirlaş sexida kon texnikasi gidravlik tizimlarining gidronasoslari va gidrotsilindrlarini ta’mirlaş, yuqori bosimli şlanglar tayyorlaş, içki yonuv dvigatellarining tirsakli vallarini silliqlaş, silindrlar bloklarini qayta tiklaş hamda dvigatellarni ta’mirlaş işlari amalga oşirilmoqda.

Bunday işlar ehtiyot qismlarga bölgan ehtiyojni maqbullaştiriş va ularning uzoq muddat işonçli foydalanilişini ta’minlaşda muhim ahamiyatga ega.

Şuningdek, “NKMK” AJ Transport boşqarmasi tarkibida Logistika markazining taşkil etilişi kombinat bölinmalari örtasida yuk taşiş jarayonlarini markazlaştiriş, transport resurslaridan oqilona foydalaniş va taşiş işlari samaradorligini oşirişga qaratilgan muhim taşkiliy yeçimlardan biri hisoblanadi.

YOQILĞI-MOYLAŞ MATERIALLARIDAN OQILONA FOYDALANIŞ VA IŞLAB ÇIQARIŞ TANNARXINI KAMAYTIRIŞ

“NKMK” AJda 2026-yilda mahsulot işlab çiqariş tannarxini kamaytiriş, yoqilği-moylaş materiallaridan oqilona va samarali foydalaniş, şuningdek, işlab çiqariş jarayonlarida resurslar sarfi ustidan nazoratni kuçaytiriş maqsadida kompleks çora-tadbirlar rejasi işlab çiqilgan. Mazkur rejaga muvofiq, 2026-yil davomida jami 19 705 tonna dizel yoqilğisini tejaş belgilangan.-2026-yilning töqqiz oyi yakunlari böyiça çora-tadbirlar rejasining bajariliş darajasi 106 foizga yetkazildi hamda 188 milliard söm miqdorida iqtisodiy samaradorlikka erişildi.

Yoqilği-moylaş materiallari harakatini barça bosqiçlarda şaffof nazorat qiliş, ularning hisobini yuritiş va sarfini monitoring qiliş tizimini ilğor raqamli texnologiyalar asosida takomillaştirişga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamiyatning avtotransport vositalari, yöl-quriliş maşinalari va kon texnikasi GPS-trekerlar, yoqilği saqlaş siğimlari esa sath ölçagiçlari bilan jihozlangan. Şuningdek, omborlar va avtomobil yoqilğisi quyiş şoxobçalarida yoqilği-moylaş materiallarini qabul qiliş, saqlaş va tarqatiş jarayonlari raqamlaştirilgan. Buning natijasida yoqilği harakati, qoldiqlari va sarfini real vaqt rejimida kuzatiş hamda nazorat qiliş imkoniyati yaratilgan.

Barça jarayonlarga oid ma’lumotlarni yagona raqamli tizimga integratsiya qiliş va ularni sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida tahlil qiliş mexanizmlarini joriy etiş resurslar sarfini nazorat qiliş imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Bu orqali yoqilği-moylaş materiallarining kirimi, çiqimi, qoldiqlari va sarfi töğrisidagi ma’lumotlar özaro taqqoslanib, belgilangan me’yorlardan oğişlar, nomutanosibliklar hamda ehtimoliy suiiste’molçilik holatlarini tezkor aniqlaş va ularning oldini oliş imkoniyatlari kengaymoqda.

Joriy etilgan raqamli yeçimlar yoqilği-moylaş materiallaridan maqsadli va oqilona foydalaniş, ortiqça sarf-xarajatlarni qisqartiriş, inson omilini kamaytiriş hamda hisob-kitoblar şaffofligini oşirişga xizmat qilmoqda.

Şu bilan birga, sun’iy intellekt asosidagi tahlil va uzluksiz monitoring mexanizmlari resurslar sarfini optimallaştiriş, iqtisodiy samaradorlikni oşiriş va mahsulot işlab çiqariş tannarxini pasaytiriş uçun muhim texnologik asos bölib xizmat qilmoqda.

YÖL HARAKATI XAVFSIZLIGI — USTUVOR VAZIFA

“Muruntov” koni şaroitida, ayniqsa, tungi smenalarda va çang-tözonli ob-havoda kon avtoağdargiçlari hamda maxsus texnikalar harakatini xavfsiz taşkil etiş alohida e’tiborni talab qiladi. Köriniş darajasi pasaygan şaroitlarda yöl-transport hodisalarining oldini oliş maqsadida kon yöllariga 100 dona zamonaviy svetodiodli (LED) yöl belgilari örnatilgan.

Mazkur belgilar özidan yoruğlik taratişi tufayli haydovçilarga yönalişlarni va xavfli burilişlarni uzoq masofadan aniq köriş imkonini beradi. Bu esa kon hududida harakatlaniş şaroitlarini yaxşilaş, haydovçilarning e’tiborini oşiriş va yöl harakati xavfsizligini ta’minlaşga xizmat qiladi.

Oçiq kon hududlarida oğir va yirik hajmli kon texnikasi bilan bir qatorda yordamçi transport vositalari, jumladan, pikaplar ham harakatlanadi. Yirik kon avtoağdargiçlari haydovçilarining köriş maydonida kiçik ölçamli transport vositalarini payqaş qiyin bölişi mumkin. Şu sababli ularning köriniş darajasini oşiriş va ehtimoliy xavfli vaziyatlarning oldini oliş maqsadida karer hududida harakatlanuvçi 62 ta yordamçi transport vositasi sariq rangli miltillovçi ogohlantiruvçi çiroqlar va maxsus baland flagştoklar bilan jihozlangan.

Mazkur çoralar yordamçi transport vositalarini uzoq masofadan aniqroq köriş, ayniqsa, köriniş çeklangan şaroitlarda ularning mavjudligini öz vaqtida payqaş hamda xavfsiz oraliq masofani saqlaş imkonini beradi.

Kon hududining strategik nuqtalariga örnatilgan beşta yuqori aniqlikdagi PTZ kamerasi transport harakatini real vaqt rejimida kuzatiş imkonini beradi. Buriliş, egiliş va tasvirni yaqinlaştiriş funksiyalariga ega mazkur kameralar belgilangan hududlarni keng qamrovda nazorat qiliş, harakatdagi transport vositalarini kuzatiş va xavfli vaziyatlarni öz vaqtida aniqlaşda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uşbu tizim yordamida nafaqat transport vositalari harakati, balki kon hududidagi umumiy xavfsizlik holati ustidan nazoratni kuçaytiriş imkoniyati ham yaratilgan.

Kon hududida maxsus 40 futlik vagon-konteyner asosida zamonaviy mobil nazorat markazi taşkil etilgan. Markazda harakat xavfsizligi muhandislari faoliyat yuritib, transport vositalari harakati va tegişli körsatkiçlarni masofadan turib kuzatiş hamda tahlil qiliş işlarini amalga oşiradilar. Markaz zamonaviy dasturiy ta’minot va raqamli nazorat vositalari bilan jihozlangan.

Mobile Center dasturi transport vositalariga örnatilgan videoregistratorlar orqali olingan ma’lumotlar asosida tezlik rejimiga rioya etilişi, belgilangan yönalişdan çetlaşiş holatlari va haydovçilar tomonidan sodir etilgan qoidabuzarliklarni aniqlaş imkonini beradi.

Yonilği-moylaş mahsulotlari nazorati esa yoqilği-moylaş materiallarining sarfi, ulardan maqsadli foydalanilişi va transport vositalari hamda maxsus texnikalarning ayrim ekspluatatsion körsatkiçlarini masofadan turib nazorat qilişga xizmat qiladi.

Mazkur raqamli yeçimlarning joriy etilişi transport harakatini nazorat qiliş, xavfsizlik talablariga rioya etilişini ta’minlaş va resurslardan foydalaniş samaradorligini oşiriş uçun qöşimça imkoniyatlar yaratmoqda.

2030-YILGAÇA: BARQAROR RIVOJLANIŞ VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

“NKMK” AJning uzoq muddatli rivojlaniş strategiyasida işlab çiqariş quvvatlarini oşiriş, zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş va resurslardan samarali foydalaniş muhim örin tutadi. Uşbu vazifalarni amalga oşirişda transport va logistika tizimini yanada rivojlantiriş alohida ahamiyatga ega.

2030-yilga borib yillik oltin işlab çiqariş hajmini qariyb 30 foizga oşirib, 125 tonnaga yetkaziş vazifasi qöyilgan.

Uşbu maqsadga erişişda transport sohasidagi mutaxassislar oldida logistika tizimini zamonaviy texnologiyalar va resurslarni tejaş tamoyillari asosida takomillaştirişi talab etiladi.

2030-yilgaça bölgan davrda “Muruntov” va boşqa yirik konlarda, temir yöl transportida yuk taşiş jarayonlarini mikroprotsessorli raqamli boşqaruv tizimlariga ötkaziş, yuk taşiş hajmlarini TOS va WMS kabi zamonaviy raqamli platformalar bilan integratsiya qiliş orqali transport samaradorligini oşiriş istiqbollari mavjud. Bu kabi yeçimlar transport harakatini muvofiqlaştiriş, yuk oqimlarini optimallaştiriş va işlab çiqariş jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaşga xizmat qiladi.

Sönggi yillarda “NKMK” AJ transport tizimida amalga oşirilayotgan modernizatsiya, raqamlaştiriş, kadrlar salohiyatini oşiriş va harakat xavfsizligini mustahkamlaşga qaratilgan çora-tadbirlar oddiy texnik yangilaniş doirasidan ança kengdir. Ular kombinatning işlab çiqariş barqarorligini ta’minlaş, iqtisodiy samaradorligini oşiriş va kelgusidagi strategik maqsadlariga erişiş uçun mustahkam zamin yaratmoqda.

Raqamli texnologiyalar, intellektual boşqaruv yeçimlari va malakali mutaxassislar salohiyatining uyğunligi kombinat transport tizimini kelajak talablariga moslaştiriş, resurslardan oqilona foydalaniş va xavfsiz işlab çiqariş muhitini şakllantirişning muhim omili bölib xizmat qilmoqda.

Rustam ERGAŞEV,
“NKMK” AJ Transport böyiça direktor.

Konçilik sanoatida har bir daqiqa, harakat va har bir texnika birligi katta ahamiyatga ega. Toğ jinslarini qazib olişdan tortib, ularni belgilangan manzilga yetkazişgaça bo‘lgan murakkab jarayonlar aniq hisob-kitob, uzluksiz harakatni talab etadi. Şimoliy kon boşqarmasi Avtomobil transporti boşqarmasining barqaror ishlaşi korxonada işlab çiqariş sur’ati va belgilangan vazifalarning öz vaqtida bajarilişiga bevosita ta’sir körsatadi.



BARQAROR HARAKAT — YUKSAK NATIJALAR



Ötgan asrning 60-yillarida taşkil topgan 2-avtokorxona transport boşqarmasining şakllanişi, taraqqiy etişi va mustahkam moddiy-texnik bazasi yaratilişida muhim poydevor böldi.

Bugun boşqarma jamoasi oldida turgan vazifalar keçagidan köra kölamli va mas’uliyatliroq. Zamonaviy toğ-kon texnologiyalarining joriy etilişi, yirik infratuzilma loyihalarining amalga oşirilişi va transport parkining yangilanişi iş jarayonlarini yangi bosqiçga olib çiqmoqda. 2024-2026-yillarda amalga oşirilgan modernizatsiya işlari doirasida boşqarmaning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada mustahkamlandi.

– Modernizatsiya jarayonida “KOMATSU” kompaniyasida işlab çiqarilgan, 91 tonna yuk kötariş quvvatiga ega HD785-7R rusumli 63 ta hamda “CATERPILLAR” kompaniyasining yirik hajmli 4 ta avtoağdargiçi keltirildi. Ulardan samarali foydalaniş işlab çiqariş unumdorligini oşirişga xizmat qilyapti, – deydi boşqarma boşliği Sanjar Toğayev.

Transport xizmati faqat toğ massalarini taşiş bilan çeklanmaydi. Kon içki yöllarini quriş va ta’mirlaş, yer işlarini bajariş, yuklaş-tuşiriş jarayonlari ham muhim vazifalardan sanaladi. Bu yönalişdagi işlarni jadallaştiriş maqsadida, “Liebherr” rusumli 2 ta buldozer, Xitoyda işlab çiqarilgan “XCMG” rusumli 7 ta ğildirakli yuklagiç, “KOMATSU” rusumli 2 ta avtogreyder, 1 ta ğildirakli yuklagiç, 3 ta gusenitsali buldozer va “MANITOU” rusumli yuk kötargiç olib kelindi. Bugungi kunda boşqarma ixtiyorida 242 ta avtoağdargiç, 105 ta yöl-quriliş maşinasi va 52 ta yordamçi avtotransport vositasi mavjud.

Ötgan yili Şimoliy kon boşqarmasi tarkibiga “Auminzo-Amontoy” koni va “Turbay” kareri qöşilişi natijasida xizmat körsatiladigan işlab çiqariş obyektlari, toğ massalarini taşiş yönalişlari va transport işlari hajmi ortdi. Yangi vazifalarga zamonaviy texnika va takomillaşgan iş jarayonlari bilan javob berildi. Işlab çiqariş körsatkiçlari bu özgarişlarning amaliy samarasini körsatdi. 2024-yilda toğ massalarini taşiş hajmi 74 million kubometrni taşkil etgan bölsa, 2025-yilda bu körsatkiç 143 million kubometrga yetdi.

Samarali işlab çiqariş uçun birgina yangi texnika xarid qilişning özi kifoya qilmaydi. Ularning doimiy texnik şayligini ta’minlaş, ta’mirlaş işlarini tezkor taşkil etiş va xodimlar uçun munosib mehnat şaroitlarini yaratiş ham muhim. Şu bois, sönggi beş yilda boşqarmada yangi xizmat körsatiş yönalişlari, ustaxonalar va maxsus uçastkalar taşkil etilib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Markaziy ustaxonada oğir agregatlarni kötariş va tuşiriş jarayonlarini xavfsiz taşkil etiş uçun 32 tonna yuk kötariş quvvatiga ega köprikli kran örnatildi. Katta ölçamli şinalarga xizmat körsatiş imkoniyatlarini kengaytiriş maqsadida, zamonaviy TIP-TOP sexi işga tuşirildi. Transport vositalari va yöl-quriliş texnikalaridagi nosozliklarni aniqlaş hamda ularning oldini oliş uçun laboratoriya binosi kapital ta’mirlanib, zamonaviy spektrometr qurilmasi örnatildi.

Yangi ma’muriy-ekspluatatsiya binosi, instrumental omborxona va mobil moy tarqatiş konteyneri foydalanişga topşirilişi texnikalarning xizmat körsatiş muddatini oşirmoqda, – deydi boş muhandis Mehriddin Buranov. – Akkumulyator sexi töliq kapital ta’mirlandi, xodimlar uçun zamonaviy oşxona barpo etildi, navbatçi çilangarlarning kiyiniş va yuviniş xonalari yangilandi. Texnik xizmat körsatiş, katta ölçamli şinalarni va içki yonuv dvigatellarini ta’mirlaş sexlarida zamonaviy talablarga mos quyma pol qoplamalari yotqizildi.

Boşqarmada işçi-xodimlarga qulay şart-şaroit yaratiş muhim vazifalardan hisoblanadi. Kelgusi yilda ikki qavatli ma’muriy bino hamda haydovçilar uçun kutiş zali qurilişi va foydalanişga topşirilişi rejalaştirilgan. Yangi işlab çiqariş maydonlarining özlaştirilişi boşqarma jamoasi zimmasiga qöşimça mas’uliyat yuklamoqda. Joriy yilda belgilangan loyihalar doirasida tarkibida kumuş mavjud bölgan ma’danlarni qazib oliş va taşiş işlarini taşkil etiş uçun Oqjetpes, Nuqrakon va Qasmanaçi konlarida işlar boşlandi.

Kon boşqarmasi tizimidagi avtomobil transporti xizmati katta jamoani birlaştirgan. Avtomobil transport boşqarmasi, “Auminzo-Amontoy” avtomobil transport boşqarmasi, “Turbay” va “Doğiztov” transport sexlarini öz içiga olgan tizimda jami 2 ming 700 nafardan köproq işçi-xizmatçi mehnat qiladi. Ahil jamoalarning har bir a’zosi transport tizimining barqaror işlaşi va işlab çiqariş vazifalarining bajarilişiga öz hissalarini qöşmoqda.

Quvonçli natijalar zamonaviy texnika, mustahkam infratuzilma, puxta taşkil etilgan jarayonlar va malakali xodimlar mehnati uyğunligida şakllanmoqda. Kelgusida haydovçilar va ta’mirlovçilarning kasbiy mahoratni oşiriş, mehnat muhofazasi talablariga qat’iy rioya qiliş va işlab çiqariş madaniyatini yuksaltiriş ustuvor vazifa bölib qoladi.

Azamat ĞULOMOV.

■ Istiqlol odimlari

“AUMINZO-AMANTOY” KONIDA

ishlab chiqariş samaradorligi oşmoqda

Işlab çiqariş quvvatlarini kengaytiriş, zamonaviy texnologiyalarni joriy etiş va investitsiya loyihalarini amalga oshirish Şimoliy kon boşqarmasining “Auminzo-Amantoy” konida olib borilayotgan işlar samaradorligini yanada oşirmoqda. Korxonada keyingi yillarda işlab çiqariş jarayonlarini modernizatsiya qiliş hamda mehnat unumdorligini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

I.Namozov, F.Xolmurodov, M.Saparov, J.Usmanov, O.Anarov, B.Oripov, J.Hamidov, Z.Bozorov, F.Nurov, N.Xasanov, J.Kiliçov, R.Tojiyev, A.Beknazarov, Ş.Haydarov, N.Muhammadiyev, E.Nurmamatov, D.Parmanov, M.Şomurodov, X.Kaxxorov, F.Bozorov, Ş.Tursunov, F.Ergaşev, Ş.Ergaşov, O.Adizov, K.Xasanov, R.Turabov kabi yoş va serğayrat mutaxassislar, öz kasbiga mehr qöygan yoşlar





Sönggi beş yilda konda toğ-kon işlari barqaror sur’atlarda olib borildi. Xususan, 2025-yil yakuniga köra toğ massasini qazib oliş rejasi 115,2 foizga, joriy yilning ötgan töqqiz oyida esa 100,7 foizga bajarildi. Şuningdek, qayta işlaş korxonalariga ma’dan jönatiş rejasi ortiği bilan bajarildi. Bu, ma’dan qazib çiqariş va işlab çiqariş samaradorligini oşiriş böyiça belgilangan çoratadbirlar amalga oşirilayotganligining amaliy natijasidir.

– Kelgusida “Markaziy Amantoy” hamda “Şimoliy Amantoy” konlarida 470 metr çuqurlikgaça qaziş işlari olib boriladi. Mazkur konlardan olingan sulfidli ma’danlar 3-, 5-gidrometallurgiya zavodlarini ta’minlaydi. Hozirgi kunda konlarni oçiş va tayyorlaş işlari olib borilmoqda, – deydi kon boşliği Jasurbek Ismatov. Mazkur konlardan 175 million kubometrdan ortiq toğ jinslari qazib oliş rejalaştirilgan. Buning uçun kon sanoatining zamonaviy texnikalariga ehtiyoj seziladi. Şu maqsadda kombinat kömagida Yaponiya davlatidan “Hitaçi”, Germaniya davlatidan “Liebherr” gidravlikali ekskavatorlar va Xitoy davlatidan WK-10C elektr ekskavatori hamda Şvetsiyadan “Atlas Copco” va “Sandvik” firmalarining burğilaş uskunalari va boşqa köplab texnikalar keltirildi.

Bugungi kunda konda 14 ta gidravlik va 1 ta elektr ekskavator hamda yettita yuqori unumdor burğilaş qurilmasidan foydalanilmoqda. “Flexi-ROC D55”, “Epiroc DM45” va “Sandvik D45KS” rusumli burğilaş uskunalari toğ jinslarini samarali burğilaş orqali portlatiş işlarining sifatini oşirayapti.

Joriy yilning 15-aprelida işga tuşirilgan WK-10 rusumli elektr karyer ekskavatori kovşining hajmi 10 kubometr, oğirligi 490 tonna bölib, balandligi tört qavatli bino bilan tenglaşadi. Zamonaviy ekskavator oyiga örtaça 300 ming kubometr, ya’ni 840 ming tonnagaça toğ massasini qazib oliş imkoniyatiga ega. Yil davomida bu körsatkiç 3,5 million kubometr yoki qariyb 9,8 million tonna toğ massasini taşkil etadi.

Yuklarni belgilangan manzilga öz vaqtida yetkazişda temir yöl tarmoğining hissasi beqiyos. Temir yöl liniyalarini “Auminzo-Amantoy” koni “Şimoliy Markaziy Amontoytov” kareri ma’dan yuklaş punktidan 5-gidrometallurgiya zavodi ma’dan qabul qiliş bunkeriga qadar uzaytiriş işlari yakunlanib işga tuşirildi. Yangi texnikalarning işga tuşirilişi qazib oliş hajmini oşiriş, yoqilği va energiya sarfini tejaş, texnik xizmat körsatiş xarajatlarini kamaytiriş hamda iş jarayonlarining samaradorligini yanada yuksaltirişga xizmat qilmoqda.

– 2009-yilda konga ekskavator maşinisti yordamçisi bölib işga kirdim. Hozirgi paytda işlab çiqarişdan ajralmagan holda oliy ma’lumotli böliş uçun tahsil olmoqdaman. Zamonaviy ekskavator yordamida oyiga 350 ming kub metr, qariyb 900 ming tonna oltinga boy ma’danni avtoağdargiçlarga yuklayapman, – deydi ekskavator maşinisti Alpomiş Murodullayev.

Jamoada A.Najmiddinov, Ş.Davirov, Ş.Karşiyev, T.Umirov, M.Bayjigitov, X.Jarkinov, borligi bois işda unum, natija bölayapti. Öndan ortiq millat vakillari bir oila farzandlaridek mehnat qilayotgan kon jamoasining istiqbolli loyihalardan umidi katta.

Konda innovatsion yondaşuvlarga ham katta ahamiyat berilmoqda. 2026-yilning ötgan davrida işlab çiqarişni takomillaştirişga qaratilgan 6 ta ratsionalizatorlik taklifi işlab çiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ularning iqtisodiy samarasi qariyb 48 million sömni taşkil etdi.

2026-yilda-konning “Markaziy–Şimoliy Amantoy”, “Ğarbiy Amantoy”, “Uzunbuloq”, “Asovqoq” va “Nukrakon” karerlarida toğ-kon işlarini olib borilmoqda. Korxonada istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oşiriş işlari jadal davom etmoqda. Jumladan, Nuqrakon, Kosmonaçi va Öqetmas konlaridagi kumuş tarkibli ma’danlarni qazib oliş va qayta işlaş majmuasini barpo etiş loyihasi amalga oşirilmoqda.

Kon mehnat ahli uçun barça zarur şart-şaroitlar yaratilgan. 200 örinli oşxona işçi-xodimlar xizmatida. Joylarda ovqatlaniş xonalari taşkil etilib, kerakli jihozlar va mikrotölqinli peçlar bilan ta’minlangan. Işçilarning konga borib-kelişi uçun jamoat transportlari xizmat körsatayapti.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni keng joriy etiş, işlab çiqarişni raqamlaştiriş hamda yirik investitsiya loyihalarini hayotga tatbiq etiş “Auminzo-Amantoy” konining işlab çiqariş quvvatlarini oşiriş, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

Azamat ZARIPOV.
Muallif olgan suratlar.

■ Biznikilarni bilib qöying!

G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toşkent filialining bitiruvçisi Biloliddin Omonullaev Rossiyada böib ötgan “Kelajak ilmi — yoşlar ilmi” talabalar va aspirantlarning XI Butunrossiya ilmiy-tadqiqot işlari tanlovida birinchi örinni qölga kiritdi.



BILOLIDDIN – ILMIY TANLOV ĞOLIBI

Özbekistonlik talaba Rossiyadagi nufuzli ilmiy tanlovda birinchi örinni egalladi.



Özbekistonlik yoş ilmiy tadqiqotçi uşbu nufuzli tanlov finaliga yetib kelgan yagona vatandoşimiz böldi va “Yer haqidagi fanlar, ekologiya va tabiatdan oqilona foydalaniş” yönalişida ğolib böldi.

Joriy yilda mazkur tanlovga Rossiyaning 81 ta hududidagi 537 ta oliy ta’lim va ilmiy taşkilotlardan, şuningdek yaqin va uzoq xorijiy davlatlardan 3 ming 400 nafarga yaqin yoş tadqiqotçilar öz işlarini topşirgan edi. Mustaqil ilmiy ekspertiza yakunlariga köra faqat 300 nafardan ortiq talaba va aspirantlar final bosqiçiga tanlab olindi. Tanlovning final bosqiçi Nijniy Novgorod şahrida bölib ötdi.

Talabalar va aspirantlar ilmiy-tadqiqot işlari böyiça “Kelajak ilmi – yoşlar ilmi” Butunrossiya tanlovi Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi tomonidan Rossiya fan va texnologiyalar ön yilligi doirasida har yili ötkaziladi. Tanlov yoş tadqiqotçilarni qöllab-quvvatlaş va ilğor ilmiy işlarni keng jamoatçilikka yetkazişga yönaltirilgan.

– Öğlimning bu muvaffaqiyatini eşitib, közlarimga yoş keldi, – dedi Biloliddin Omonullayevning onasi, “Farhod” madaniyat saroyi xodimi Matlyuba Nasimova. – Bu har bir ona uçun hayotdagi eng katta baxt ekan. U nafaqat oilamiz, balki butun Özbekiston şarafini xalqaro maydonda munosib himoya qildi. Uning yutuği ortida ustozlarining zahmatli mehnati va yurtimizda yoşlarga yaratilayotgan şaroitlar turibdi. Ilohim, ilm yölida zahmat çekayotgan barça farzandlarimizning ilmi bundanda ziyoda bölsin, olgan bilimlari Vatanimiz rivojiga xizmat qilsin!

Biloliddin Omonullayev Özbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohibi hamda “Plexanov faxri – 2026” mukofoti laureatidir. U-2024-yilda ham Samara şahrida ötkazilgan mazkur tanlov finalida muvaffaqiyatli iştirok etgan edi.

M.PARDAYEV.

■ Dolzarb mavzu

KORRUPSIYAGA QARŞI KURAŞ – BARÇANING IŞI

Korrupsiya – har qanday davlatning ildiziga bolta uruvçi eng xavfli omildir. Mamlakatimizda sönggi yillarda uşbu illatga qarşi tizimli kuraş olib borilmoqda, davlat idoralarining oçiqligi ta’minlanyapti. Biroq körilayotgan şora-tadbirlarga qaramay, hayotimizning muayyan sohalarida yaşirin iqtisodiyot va mansabni suiiste’mol qiliş hollari hamon uçrab turibdi.



Jamiyatda adolat mezonlarini mustahkamlaş, jinoyat uçun jazoning muqarrarligini ta’minlaş va korrupsiyaga qarşi murosasiz muhitni yangi bosqiçga olib çiqiş maqsadida Qonunçilik palatasi tomonidan-2026-yil 25-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 13-iyunda tasdiqlangan “Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarşi kuraşiş samaradorligini oşirişga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uçun javobgarlik muqarrarligini ta’minlaşga qaratilgan qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida”gi qonuni joriy yilning 23-iyunidan kuçga kirdi.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan şaxslarning elektron reyestri yuritilişi belgilangani asosiy yangiliklardan biri böldi.

BUYOĞIGA “YENGILLIK”NI UNUTING

Eng katta özgariş tabiiyki, Jinoyat kodeksiga kiritildi. Bu yerda gap nafaqat jazo muddatlarini uzaytiriş, balki korrupsionerlar uçun ilgari mavjud bölgan ayrim yengilliklar yoki avf etiş haqida bormoqda. Aniqroği, 5 turdagi korrupsion jinoyatlar uçun jazodan muddatidan ilgari şartli ozod qiliş yoki jazoni yengilroği bilan almaştiriş qoidalari qöllanilmasligi belgilandi. Masalan, şu paytgaça amaliyotda davlatning milliardlab mablağini “tuya” qilgan şaxs qamalardi-da, jazo muddatining muayyan qismini ötab, “xulqi namunali bölgani uçun” şartli ravişda muddatidan oldin ozodlikka çiqib ketaverardi. Endi bunga çek qöyildi.

Jinoyat kodeksining 73-moddasiga kiritilgan yangilikka köra, davlat yoki özganing mulkini özlaştiriş yoki rastrata qiliş hamda firibgarlik uçun hukm qilingan şaxslar, agar ular sodir etgan jinoyati oqibatida yetkazilgan moddiy zararni töliq qoplamasa, heç qanday şart bilan muddatidan oldin ozod qilinmaydi.

Endilikda takroran yoki xavfli retsidivist (muqaddam şunday jinoyat bilan sudlangan) tomonidan yoxud juda köp miqdorda sodir etilgan pora oliş, pora beriş va pora oliş-berişda vositaçilik qiliş jinoyatlari uçun hukm qilingan şaxslarga nisbatan jazodan şartli ravişda muddatidan oldin ozod qiliş yoki jazoni yengilroği bilan almaştiriş çoralari mutlaqo qöllanilmaydi.

Bugungi kunda texnologiyalar rivojlanişi bilan firibgarlik va öğrilik ham raqamli körinişga ötmoqda. Şu sabab davlat mulkini ömariş (167-modda) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib yoki mansab mavqeini suiiste’mol qilgan holda sodir etilsa, u avtomatik ravişda oğirroq kvalifikatsiya qilinadigan böldi.

Firibgarlik (168-modda) jinoyatida ham xizmat mavqeidan foydalanib, uyuşgan guruh manfaatlarini közlab iş tutiş holatlari uçun sanksiyalarga “muayyan huquqdan mahrum etgan holda” degan majburiy qöşimça jazo kiritildi. Ya’ni, bunday odam ma’lum muddat qamalib çiqqandan keyin ham uzoq vaqt davomida rahbarlik yoki moddiy javobgarlik lavozimlariga yaqinlaştirilmaydi.

BUTUN XALQ KURAŞADI

Jinoyat kodeksida “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tuşunçasiga ta’rif berilib, unga 18 turdagi jinoyatlar kirişi belgilandi. Endi har bir rahbar, mutasaddi yoki oddiy davlat xizmatçisi qaysi çiziqni bosib ötsa, töğridan töğri “korrupsioner” tamğasini olişini va yuqorida aytilgan oğir çeklovlarga duç kelişini aniq biladi. Köpçilik oddiy odamlar hayotida adolatsizlikka yoki poraxörlikka duç kelganda “Agar bu haqda tegişli joyga aytsam, özimga ziyon yetişi mumkin, meni tinç qöyişmaydi, işdan haydaşadi” deb qörqadi. Mana şu qörquv va ijtimoiy sukunat korrupsiyaning “gullab-yaşnaşi”ga xizmat qiladi.

Yangi islohotlar doirasida Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasiga törtinçi qism qöşildi. Unga köra, korrupsiya holatlari yoki boşqa jinoyatlar haqida xabar bergan, guvohlik berayotgan yoki illatni foş qilişda qatnaşayotgan şaxslarni himoya qiliş uçun xavfsizlik çoralarini qöllaş asoslari va tartibi qonunçilik bilan qat’iy belgilanişi mustahkamlandi. Bu tizim amalda qanday işlaydi? Davlat korrupsiya haqida xabar bergan fuqaroning şaxsiy ma’lumotlari sir saqlanişini, xizmat joyida ta’qib qilinişidan himoyalanişini, zarur hollarda jismoniy xavfsizligi ta’minlanişini huquqni muhofaza qiliş organlari öz zimmasiga olişmoqda.

YANGI TIZIM IŞLAYDI

Har bir vazirlik, idora, davlat taşkiloti yoki davlat uluşi bölgan yirik korxonalarda komplayens va korrupsiyaga qarşi içki nazorat tuzilmalari faoliyat yuritişni boşladi. Ularning asosiy vazifasi taşkilot içida byudjet mablağlarining töğri sarflanişini nazorat qiliş, affillanganlik (taniş-bilişçilik) va manfaatlar töqnaşuvining oldini olişdir. Uşbu tizim xodimlari taşkilot içida bevosita yoki bilvosita kuzatiş olib boriş, tekşiruvlar ötkaziş va tezkor-qidiruv organlari bilan hamkorlik qiliş huquqiga ega böldi.

Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligi sohada davlat siyosatini şakllantiruvçi va amalga oşiruvçi, davlat organlari, OAV va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikdagi faoliyatini taşkil etuvçi yagona maxsus vakolatli organ sifatida e’tirof etildi. Agentlikka davlat xizmatçilarining daromadlari va mol-mulkini, şuningdek, manfaatlar töqnaşuvini deklaratsiyalaş tizimini işlab çiqiş va uning işlaşini nazorat qiliş kabi mas’uliyatli vazifalar yuklandi. Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligi har bir davlat organi va taşkilotlari, hududlar va sohalar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini şakllantiriş bilan ham şuğullanadi.

IMMUNITET BOLALIKDAN BOŞLANADI

Qonun ijodkorlari juda töğri bir haqiqatni hisobga olişgan: korrupsiyani faqat qamaş va jarima soliş bilan tugatib bölmaydi. Eng muhimi – insonlarning dunyoqaraşini, madaniyatini özgartirişdir. Agar jamiyat bolalikdan, maktab davridan boşlab pora berişni jirkanç, uyat va oğir gunoh deb bilsa, kelajakda bunday illat özidan özi ildiz ota olmaydi. Şu sababli, “Yoşlarga oid davlat siyosati töğrisida”gi qonunga muhim qöşimçalar kiritildi. Endi yoşlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni şakllantiriş, ularda yot ğoyalarga qarşi immunitetni mustahkamlaş davlat siyosatining asosiy yönalişlaridan biri etib belgilandi. Maktablar, oliy ta’lim muassasalari va mahallalarda yoşlarga halollik standartlari, öz mehnati bilan muvaffaqiyatga erişiş tuşunçalari tizimli ravişda singdiriladi.

ENG TÖĞRI YÖL – HALOLLIK

Yangi qabul qilingan qonun hujjatlari şunçaki qoğozdagi özgarişlar emas. Bu - jamiyatimizda uzoq yillardan beri ildiz otgan tizimli muammolarni tag-tubi bilan yöq qilişga qaratilgan jiddiy siyosiy iroda namunasidir. Jazoning kuçaytirilişi, yetkazilgan zararni tölamay turib muddatidan avval ozodlikka çiqarilmaslik qoidasi, davlat xaridlaridagi qat’iy nazorat va korrupsiyaga qarşi kuraşuvçi organlarning maqomi oşirilişi - bularning barçasi yagona maqsadga - mamlakatimizda har bir fuqaro qonun ustuvorligi va adolatni his qilişi kerakligiga xizmat qiladi.

Olimjon TAŞEV,
“NKMK” AJ Komplayens xizmati monopoliyaga qarşi komplayens böyiça xodimi.

■ Nuqtai-nazar

Zamonaviy dunyoda tabiiy resurslarning o‘zi taraqqiyotni ta’minlaş uchun etarli emas. Ularni chuqur qayta işlaş, yangi texnologiyalar yaratiş, innovatsion yeçimlarni işlab chiqiş va ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etiş uçun yuqori malakali mutaxassislar, mustahkam ilmiy maktablar hamda samarali ta’lim tizimi zarur. Şu ma’noda, mamlakatimizda ta’lim va ilm-fan sohasini boşqariş tizimida amalga oşirilayotgan yangi taşkiliy özgarişlar Özbekiston taraqqiyotining uzoq muddatli maqsadlariga xizmat qiladigan muhim strategik qadamlardir.

ILM-FAN – KELAJAKKA TIKILGAN ENG MUHIM SARMOYA

Özbekiston Respublikasi Prezidentining tegişli farmoniga muvofiq, Erkinjon Turdimov Özbekiston Respublikasi Boş vazirining birinçi örinbosari – Ta’lim va ilm-fan vaziri lavozimiga tayinlandi. Şu bilan birga, Vazirlar Mahkamasi ijro etuvçi tuzilmasida yangi lavozim joriy etilib, Ta’lim, ilm-fan va soğliqni saqlaş masalalari kotibiyati taşkil qilindi. Yangi boşqaruv mexanizmi mazkur sohalarda mas’uliyatni kuçaytiriş, faoliyatni özaro muvofiqlaştiriş va belgilangan vazifalar ijrosida natijadorlikni ta’minlaşga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz yaqindagina Yangi Toşkentda ötkazilgan oçiq muloqotda yangi Ta’lim va ilm-fan vazirligi hamda uning rahbari tayinlanişi haqida bildirgan fikrlari masalaning naqadar dolzarb ekanini yana bir bor namoyon etdi. Yurtboşimizning “Törtta viloyatga hokim bölgan odamni Ta’lim vazirligiga bekorga olib kelmadim”, deya ta’kidlagani, oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa son körsatkiçlaridan sifat natijalariga ötiş zarurati alohida qayd etilgani bejiz emas.



Albatta, yangi vazir Erkinjon Turdimovning hududlarni boşqariş borasida töplagan boy tajribasi ham alohida e’tiborga loyiq. U kişining 2008–2016-yillarda Navoiy viloyati hokimi vazifasida işlagan yillari ham men kabi köplab deputatlar, qolaversa oddiy aholi xotirasida öçmas yorqin izlar qoldirgan. Şubhasiz, ta’lim va ilm-fanni samarali boşqariş uçun sohani çuqur tuşuniş bilan birga, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarini anglaş, kadrlar tayyorlaş tizimini real hayot bilan boğlaş ham öta muhimdir. Bu jihatlar esa E.Turdimovda töla mujassam va bu tayinlovni xalqimiz olqişlayotganini barçamiz kuzatib turibmiz!

Darhaqiqat, ilm-fan taraqqiyotini ta’lim tizimidan, işlab çiqarişdan va iqtisodiyotning real ehtiyojlaridan ajratib tasavvur etib bölmaydi. Jahon tajribasi ilmiy işlanmalar işlab çiqarişga samarali tatbiq etiladigan, universitetlar va sanoat korxonalari örtasida mustahkam hamkorlik yölga qöyilgan mamlakatlar yuqori qöşilgan qiymat yaratişda ustunlikka ega bölişini körsatmoqda. Özbekiston uçun ham bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoatni modernizatsiya qiliş, raqamli iqtisodiyotni rivojlantiriş, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalaniş, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etiş va ekologik muammolarga ilmiy yeçim topiş kabi vazifalar ilm-fan oldiga yangi talablarni qöymoqda.

Navoiy viloyati uçun bu masalalarning ahamiyati yanada yuqori. Hududimiz konçilik, metallurgiya, kimyo sanoati va energetika kabi strategik tarmoqlari bilan mamlakat iqtisodiyotida muhim örin tutadi. Mazkur sohalarning barqaror rivoji zamonaviy bilim va texnologiyalarni çuqur egallagan muhandislar, texnologlar, iqtisodçilar hamda ilmiy tadqiqotçilarga bevosita boğliq. Demak, hududdagi oliy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini mustahkamlaş, işlab çiqariş bilan hamkorlikni kengaytiriş va yoşlarning ilmiy izlanişlarini rağbatlantiriş taraqqiyotning muhim şartlaridan biridir.

Navoiy davlat konçilik va texnologiyalar universiteti singari oliy ta’lim muassasalari uşbu jarayonda alohida örin tutadi. Universitetlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantiriş, professor-öqituvçilar va yoş olimlarning izlanişlarini qöllab-quvvatlaş, talabalarni ilmiy loyihalarga keng jalb etiş orqali hududning innovatsion imkoniyatlarini oşiriş mumkin. Buning uçun korxonalar buyurtmalari asosida ilmiy loyihalar işlab çiqiş, yoş tadqiqotçilarning ğoyalarini grantlar va startaplar orqali rivojlantiriş, zamonaviy laboratoriyalar imkoniyatlaridan samarali foydalaniş zarur. Eng muhimi, ilmiy işlanmaning amaliyotga tatbiq etilişi va real muammoni hal qilişiga e’tibor qaratiş lozim.

Mamlakatimizda ta’lim, ilm-fan va soğliqni saqlaş yönalişlarining özaro muvofiqlaştirilişi ham inson kapitalini rivojlantirişga kompleks yondaşiş imkonini beradi. Ilm-fan faqat laboratoriyalar va ilmiy markazlar faoliyati bilan çeklanmaydi. U jamiyatning tafakkuri, yangilikka munosabati, tanqidiy fikrlaş madaniyati va kelajakka işonçida ham namoyon böladi.

Yangi taşkil etilgan Ta’lim va ilm-fan vazirligi oldida turgan vazifalar, xususan, yoşlar salohiyatini röyobga çiqariş, universitetlarni bilim va innovatsiyalar markaziga aylantiriş, ilmiy izlanişlarni iqtisodiy taraqqiyot bilan boğlaş hamda Özbekistonning xalqaro ilmiy maydondagi örnini mustahkamlaşga samarali xizmat qilişiga töla işonaman! Bu yölda davlat idoralari, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy jamoatçilik, işlab çiqariş korxonalari va fuqarolik jamiyatining hamkorligi hal qiluvçi ahamiyatga ega böladi.

Ta’limda sifat, ilm-fanda natijadorlik va boşqaruvda mas’uliyat boş mezonga aylansa, bugungi taşkiliy özgarişlar mamlakatimiz taraqqiyotida yangi imkoniyatlar eşigini oçadi. Çunki mamlakatning eng katta boyligi — uning bilimli, izlanuvçan va bunyodkor insonlaridir. Ilm-fanga tikilgan sarmoya kelajakka tikilgan sarmoya, sifatli ta’lim esa kuçli davlat va farovon jamiyatning eng mustahkam poydevori sanaladi.

Saodat BOZOROVA,
professor.

■ “101” xabar qiladi

ISITIŞ MAVSUMI – MAS’ULIYATLI DAVR

Kuz-qiş mavsumining boşlanişi xonadonlar, korxona va taşkilotlarda isitiş moslamalaridan foydalaniş ehtiyojini oşiradi. Bu davrda yonğin xavfsizligi qoidalariga rioya qiliş, gaz va elektr jihozlaridan töğri foydalaniş har qaçongidan ham muhimdir. Ayni kunlarda mamlakatimizda ötkazilayotgan “Isitiş mavsumini xavfsiz boşlaylik!” oyligi doirasida aholi va işçi-xizmatçilar örtasida keng qamrovli tuşuntiriş-tarğibot işlari olib borilmoqda.

Xususan, Janubiy kon boşqarmasiga qaraşli 4-gidrometallurgiya zavodi, “Ğujumsoy” va “Zarmitan” konlari hamda boşqa barça işlab çiqariş uçastkalarida işçi-xodimlarning xavfsizligini ta’minlaş va mas’uliyatini oşiriş maqsadida uçraşuvlar taşkil etilmoqda.

Mavsum davomida köngilsiz hodisalarning oldini oliş uçun quyidagi oddiy, ammo hayotiy qoidalarga qat’iy rioya qiliş talab etiladi:

• Tekşiruv va sozlik: peç va isitiş qurilmalarining möri hamda dudburonlarini mavsum oldidan albatta tozalang. Nosoz, şikastlangan yoki qölbola isitkiçlardan mutlaqo foydalanmang.

• Tarmoqqa ortiqça yuklama bermang: Bir neçta kuçli elektr jihozlarini bitta rozetkaga ulamang va ularni tun davomida qarovsiz qoldirmang.

• Is gazidan ogoh böling: Gaz plitasidan xonani isitiş maqsadida foydalanmang. Xonalarni muntazam şamollatib turing. Uxlaşdan oldin gaz va isitiş moslamalari öçirilganini tekşiring.

• Bolalarning gugurt va zajigalka bilan öynaşiga yöl qöymang, yonuvçan buyumlarni isitkiçlar yaqinida saqlamang.

Agar xonada gaz hidi sezilsa, çiroqni yoqmang, oçiq olovdan foydalanmang. Darhol xonani şamollatib, xavfsiz joydan turib gaz avariya xizmatiga xabar bering. Yonğin çiqqanda esa vahimaga tuşmay, zudlik bilan qutqaruv xizmatini çaqiring.

Unutmang, xavfsizlik qoidalariga rioya qiliş — öz hayotingiz va yaqinlaringiz soğliğini asraş demakdir!

Sohibjon TEŞAYEV,
“NKMK” AJ va “Navoiyuran” DK OFVM JKB va NSM OFVB inspektori, leytenant.

■ 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuni

BOŞQIRD QIZI ÖZBEK TILIDA SÖZLAYDI

Bugungi kunda özbek tili nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro minbarlarda, jumladan, Birlaşgan Millatlar Taşkiloti Boş Assambleyasida ham yangrab, dunyo ahli tomonidan tan olinmoqda. Özbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun esa Özbek tili bayrami kuni sifatida keng nişonlanmoqda.

Işlab çiqariş korxonalarida 21-oktyabr — Özbek tili bayrami kunini nişonlaş nafaqat ma’naviy tadbir, balki işçi-xodimlar örtasida jamoaviy muhitni yaxşilaş va sohaviy atamalar sofligini ta’minlaş uçun ajoyib imkoniyat hamdir. Bu yil Şimoliy kon boşqarmasida Til bayramiga tayyorgarlik özgaça ruhda boşlandi. Ön tört ming nafar kişilik jamoada turli millat va elat vakillari mehnat qilişadi. Ular öz ona tillarini asrab avaylaşgani qatori özbek tilini qadrlaşadi.

Uçquduqda tuğilib ösgan, kon boşqarmasiga qaraşli Markaziy fizik-kimyoviy laboratoriyada mehnat qilayotgan Ramilya Rangova boşqird qizi. Uning ota- onasi, akalari ham şu korxonada mehnat qilişgan. Özbeklar bilan qöşni yaşaşgan. Ramilyaning oilasidagilar uyda tatar, rus tilida gaplaşişardi. U esa özbek tilini tanladi. Hatto bilim yurtidagi tahsilini ham özbek tilida yakunladi. Ijodga bölgan qiziqişi sabab şe’rlar yozdi. Agar kitob holiga keltirilsa, özbek tilidagi şe’rlar uning yarimini egallaydi.

- Maktabni ta’lim rus tilida olib boriladigan dargohda tugatganman. Köproq tanişlarim özga millat vakillari. Quvonarlisi şundaki, ular ham men kabi Özbekistonni yaxşi körgani uçun özbek tilini hurmat qilişadi. Özbek tilida gapirişga harakat qilişadi. Men bilan bitta jamoada işlayotganlar kundalik muloqotda ham işlab çiqariş va texnik atamalarning (terminlarning) özbekça muqobillarini işlatişadi.

Zavodni - korxona, stanokni - dastgoh, detalni - qism deyişganini köp uçrataman. Çunki ular uçun davlat tilini örganiş böyiça maxsus kurslar taşkil etildi. Özbek tili naqaqat bir millatning balki Özbekistoning tili, – deydi Ramilya.

Aslida tilga hurmat, qiziqiş öz-özidan paydo bölmaydi. Uning mukammalligini isbotlaş kerak. Kombinatning barça bölinmalari qatori Şimoliy kon boşqarmasida ham yil davomida korxona içki hujjatlari (buyruqlar, dalolatnomalar, hisobotlar) va xavfsizlik texnikasi yöriqnomalarining davlat tilida töğri yuritilişi közdan keçirib borilyapti.

Laylo KARIMOVA.

MA’RIFIY TADBIR

Janubiy kon boşqarmasida özbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 37 yilligi hamda 21-oktyabr – Özbek tili bayrami kuniga bağişlangan ma’rifiy davra suhbati taşkil etildi.

Tadbirda Qöşrabot tumani maktablarida qariyb yarim asr davomida özbek tili va adabiyoti fanidan dars bergan faxriy ustoz Ali Eşonqulov hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qöşrabot tumani bölinmasi mutaxassislari Jasur Ösarov va Şaxobiddin Ravşanovlar iştirok etdilar. Unda ona tilimizning jamiyatdagi örni va sofligini saqlaş masalalari muhokama qilindi.

Bayram munosabati bilan taşkilot xodimlarining savodxonlik darajasini oşirişga qaratilgan “Bexato yozamiz!” loyihasi doirasida diktantlar tanlovi ham ötkazildi. Quvonarlisi, mazkur savodxonlik sinovida kon boşqarmasining 11 ta tarkibiy bölinmasidan 50 nafarga yaqin işçi-xodimlar iştirok etdilar. Hakamlar hay’ati xulosasiga köra, faxrli birinçi örinni “Zarmitan” koni kadrlar xizmati mutaxassisi R. Mamarasulov, ikkinçi örinni “Zarmitan” koni tabelçisi M.Mamayedova, uçinçi örinni esa “Ğujumsoy” koni geologi N.Boyzoqova qölga kiritdi.

– Ona tilimiz – milliy özligimiz va ma’naviyatimiz poydevoridir, – dedi “Zarmitan” koni kadrlar xizmati mutaxassisi Rustam Mamarasulov. – Işlab çiqariş va konçilik sohasida mehnat qilsak-da, davlat tilida hujjatlarni töğri, bexato yuritiş, özaro muloqot madaniyatiga amal qiliş har birimizning fuqarolik burçimizdir. Bugungi davra suhbati va “Bexato yozamiz!” loyihasi biz, xodimlarning savodxonligini sinovdan ötkaziş bilan birga, tilimizga bölgan hurmatimizni yanada oşirdi. Mana şunday gözal bayram tadbiri va rağbat uçun taşkilotçilarga öz minnatdorçiligimni bildiraman.

Tadbir yakunida ğoliblarga 2-kasaba uyuşma qömitasi tomonidan diplom va maxsus sovğalar topşirildi.

Dildora ATABAYEVA.

Navoiy maşinasozlik zavodida har yili oktyabr oyida qutluğ sana – Özbek tili bayrami keng nişonlanadi. Bu yil ham ayyomni tilşunos olimlar, ma’naviyat tarğibotçilarini jalb etgan holda kötarinki ruhda tantana qildik.

ÖZLIGIMIZ TIMSOLI

Yaqinda zavodda özbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 37-yilligi hamda Özbek tili bayrami munosabati bilan Navoiy davlat universiteti dotsenti Farhod Nizomov hamda Davlat tilida iş yuritiş asoslarini öqitiş va malaka oşiriş markazi Navoiy viloyati hududiy bölinmasi öquv işlari böyiça bölim boşliği Çaros Rahmatovalar iştirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbir taşkil etildi. Ular maşinasozlar huzurida ona tilimizning boy tarixi, rivojlaniş istiqbollari xususida batafsil söz yuritdilar.

Şuningdek, işçi-xodimlar örtasida özbek tilida savodxonlikni oşiriş va imlo qoidalariga rioya etiş madaniyatini yuksaltirişga qaratilgan “Savodxon taşkilot – savodli jamiyat” loyihasi doirasida ommaviy diktant tadbiri ötkazildi. Hamkasblarimiz bu tadbirda iştirok etiş bilan davlat tilida töğri va ravon yoziş, fikrlari hamda könikmalarini ifodalaş imkoniga ega böldilar.


Iştirokçilar özlarining söz boyligi va yozma nutqi ravonligi, adabiy til me’yorlariga amal qilişi kabi qobiliyatlarini ijodiy sinovdan ötkazişdi. Mazkur tadbirdan közlangan maqsad - davlat tilining jamiyat va işlab çiqariş jarayonlaridagi ahamiyatini keng tarğib etiş, ona tiliga bölgan hurmatni mustahkamlaşdan iboratdir.

Ona tilimiz, bu – xalqimizning tengsiz boyligi, ma’naviy xazinasi, boy tariximiz ifodasidir. Buyuk ajdodlarimizdan bebaho meros bölgan ona tilimiz biz uçun qadrli, jozibasi özgaça. U – şunçaki muloqot vositasi emas, balki insonlarni bir-biriga boğlaydigan köprik va közgudir. Şu bois, tilimizga e’tibor, bu – Vatanimizga bölgan hurmatimiz belgisi. Uni asrab-avaylaş, boyitiş va kelgusi avlodlarga bezavol yetkaziş esa barçamiz uçun ham farz, ham qarz hamda yuksak şarafdir!

Maşhura RAHIMOVA,
Navoiy maşinasozlik zavodi ma’naviyat tarğibotçisi.

MA’NAVIYAT SARÇAŞMASI

21-oktyabr – Özbek tili bayrami munosabati bilan “Qizilqum” kon boşqarmasida ötkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirda ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi nufuzini oşiriş, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaş hamda xodimlar qalbida özbek tiliga hurmat-ehtirom tuyğusini mustahkamlaş zarurligi alohida ta’kidlandi.



Taşkil etilgan diktantlar tanlovida işçi-xodimlar faol iştirok etib, özlarining savodxonlik darajasi, husnixati va boy söz zaxirasini namoyon etdilar.

– Til – millat közgusi, ma’naviyat sarçaşmasidir, – deydi diktant ğolibi Nargiza Döstmurodova. – Işlab çiqariş va korxona tizimida hujjatlar bilan işlaşda adabiy til qoidalariga, imlo talablariga töğri rioya qiliş har bir xodimning savodxonlik madaniyatini körsatadi. Kon boşqarmasida taşkil etilgan bugungi tadbir biz, xodimlarga öz bilimlarimizni yana bir bor sinovdan ötkaziş uçun ajoyib imkoniyat böldi. Bunday e’tirofdan juda mamnunman.

Bu kabi tadbirlar işçi-xodimlar örtasida adabiy til qoidalariga rioya qiliş va mutolaa madaniyatini yuksaltirişga xizmat qiladi.

Öz muxbirimiz.

KONÇILAR HAYOTI
MUASSIS: “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta röyxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy şahri, Navoiy köçasi, 27-uy,
“NKMK” AJ boşqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta çop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamğarmasi” DM bölinmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelişilgan narxda.

Gazeta “Konçilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
“Noşir Lux” MÇJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Naşr sifati böyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etişingiz mumkin.
Bosmaxona manzili: Samarqand şahri, Spitamen köçasi, 270-uy.

Navbatçi: **Mansur HUSANOV**
Teknik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qoğoz bichimi A2. 11200 nusxada çop etildi.
Buyurtma № 414.
2026-yil 28-oktyabr 17:00 da çop etişga topşirildi.